

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH

Sobirova Aziza Farruhovna

Chirchiq tibbiyot kolleji o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini muhofaza qilish va kasalliklarning oldini olish to'g'risidagi tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Onalik, onalik obyektlari, jinsiy garmonlar, bolalik davrlari, sog'lom turmush tarsi. Reproductive salomatlik, reproduktiv huquq, reproduktiv davr.

Annotation: The article contains recommendations on health protection and prevention of diseases in women of reproductive age.

Keywords: Motherhood, objects of motherhood, periods of childhood, healthy lifestyle, reproductive rights, reproductive period

Reproduktiv salomatlik konsepsiyasi.

Ohirgi yillarda "Reproduktiv salomatlik va huquq" konsepsiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Bu konsepsiya onalikda hamshiralik parvarishida katta ahamiyatga ega, chunki bu konsepsiya onalik va bolalikni muhofaza qilishga katta e'tibor beradi. Onalikda hamshiralik parvarishi mohiyati jadal ravishda rivojlanib kelmoqda. Shuning uchun reproduktiv salomatlik va huquqni tushungan holda onalikda hamshiralik parvarishida parvarish masalalarini qayta ko'rib chiqish kerak.

Reproduktiv salomatlik konsepsiyasini rivojlanishi

1990 y. Fathalla tushunchasi (inson reproduksiyasi taraqqiyoti tekshirish maxsus dasturining raxbari). Reproductive salomatlik nafaqat reproduktiv davrida kasallik va patologiyalarni bo'lmasligi, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatni tuliqligidir.
1992y. Oilani rejalashtirish Halqaro federatsiyasi faoliyati reproduktiv salomatlikni yaxshilashga qaratilgan.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023


ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



1994y. BMTning uchinchi Halqaro konfernsiyasida (Kair, 1994y) aholishunoslik va taraqqiyot masalalari bo'yicha quyidagi ish rejasi tasdiqlandi: "Reproduktiv salomatlikni saqlab qolish maqsadida zamonaviy oilani rejalashtirish usullarini ommalashtirish".

1995y. To'rtinchi ayollar Halqaro konfernsiyasida quyidagi qonuniy projekt qayta tasdiqlangan "Ayol va salomatlik", bunda reproduktiv salomatlik konsepsiyasi, huquq hamda jinsiy salomatlik masalalari kiritildi. Deklaratsiyada asosan, har bir ayol o'zining jinsiy salomatligini saqlashi kerak va bunga o'zi javobgarligini bilishi kerak, chunki bu ayolning insoniy huquqidir.

Reproduktiv salomatlik va huquq tushunchasi.

Reproduktiv salomatlik nafaqat reproduktiv davrida kasallik va patologiyalarni bo'lmasligi, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatni tuliqligidir. Reprodukativ

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

salomatlikka asosan, inson o'zi uchun xavfsiz va qoniqarli bo'lgan jinsiy aloqada bo'lishi va qachon, qancha bola tug'ishini o'zi xal qilishi kerak. Ayol kontratseptiv usullarning samaradorligi haqida to'liq axborotga ega bo'lishi kerak va homiladorlikdan saqlanish usulini o'zi tanlashi huquqiga ega. Shu bilan bir qatorda, ayol behatar homiladorlik va tug'ruq huquqiga, sog'lom farzandlar ko'rishga va barcha xizmatlar bilan ta'minlanish huquqiga ega.

Reproduktiv huquq bu barcha er-xotin juftliklar va alohida shaxslarning bolalar soni, ular orasidagi oraliq va ularning tug'ilish vaqti haqida erkin hamda to'liq mas'uliyat hissi bilan qaror qabul qilishi va buning uchun shart bo'lgan ma'lumot va vositalarga ega bo'lishi borasidagi asosiy huquqlarni tan olish.

Reproduktiv davr ayol hayotining bir davri bo'lib, 16 yoshdan 49 yoshgacha davom etadi.

Ayol reproduktiv salomatligi va huquq masalalari.

Ayollarning reproduktiv salomatligi erkaklarnikiga nisbatan xavf ostida turadi, chunki homiladorlik va tug'ruq ayol organizmida ro'y beradi. Masalan, istalmagan homiladorlik tufayli qilinadigan abort yoki istalgan homiladorlikdan keyingi tug'ruqda kelib chiqishi mumkin bo'lgan asoratlar ayolning reproduktiv salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yaponiyadan kelgan ma'lumotlarga ko'ra fertil yoshdagi ayollarning umumiy kasalliklari ichida 30% - jinsiy a'zo kasalliklariga tashkil qiladi; erkaklarda esa - 12% (bu ayollarga nisbatan 1/3 to'g'ri keladi). Jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar: ayollarda - 8,9 %, erkaklarda esa - 1,5 %. Ushbu ma'lumotlarga ko'ra ayollar erkaklarga nisbatan jinsiy havfga 3 baravar ko'p uchraydilar. Reproduktiv jarayonni kechishi hamda jinsiy a'zolari tuzilishi va faoliyati orqali jinsiy farq namoyon bo'ladi. Ayollarning jinsiy a'zolaridagi kasalliklarning belgilari kamdan-kam holatlarda namoyon bo'ladi, ayollar o'z hohishlariga ko'ra profilaktik tekshiruvlardan o'tmaydilar, shu sababli kasallikni tashxislash qiyin kechadi.

Har bir insonning individualligi reproduktiv salomatlik va seksuallik tushanchalariga ta'sir qiladi. (onalik mohiyati integratsiyasi). Onalikni salomatligini saqlash va yaxshilash ayolning reproduktiv salomatligiga bog'liq. Ayollar sog'ligini muhofaza qilishning bugungi masalalari: reproduktiv salomatlik va huquqni himoyalash va bunga bog'liq muammolarni aniqlash.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES



Ota-ona bo'lish va onalik.

Onalik nima? Onalik mohiyatini, uning biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy taraflarini qo'shgan holda chuqur anglash kerak. Bundan tashqari, onalik tushunchasini har xil talqinlarini inobatga olib, onalikda hamshiralik parvarishi nuqtai nazarida fiziologik, psixologik va ijtimoiy hususiyatlarini ko'rib chiqish kerak.

Ota-ona bo'lishning ahamiyati.

Ota-ona bo'lish. Insonda ikkita aspekt mavjud: biri naslni saqlash (reproduksiya) bo'lsa, ikkinchisi - shaxsiyatni saqlash. Onalikda hamshiralik parvarishi asosan naslni (jins va reproduksiya) saqlab qolishga qaratilgan.

Insoniyat paydo bo'lganidan boshlab, naslni saqlab qolish reproduksiyaga yo'naltirilgan.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023


ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Tabiiy sharoitda homila ona qornida rivojlanadi, tug‘iladi va ona - bolani sut bilan boqadi. Biologik nuqtai nazarida ota-ona bo‘lish, bu naslni saqlab qolish, chunki erkak va ayol genlari kelajak avlodga reproduksiya orqali, homiladorlik, tug‘ilish va emizish orqali o‘tadi.

Naslni saqlab qolish jarayonida erkak va ayol ishtirok etadi, ammo bunda, onaning ahamiyati beqiyos, chunki u farzandini homiladorlik davrida ko‘tarib yuradi, tug‘adi, ona suti bilan boqadi, bundan tashqari, o‘z zimmasiga jismoniy zo‘riqish havfini oladi. Shu tariqa, erkak va ayolning ota-ona bo‘lishning biologik faoliyati farqlanadi. Ayolda onalik hissi paydo bo‘lishi osonroq kechadi, chunki u homiladorlik davridanoq buni his etadi. Otada esa otalik hissi, farzandini ko‘zi bilan ko‘rganda, ovozini eshitganda va ushlab ko‘rganda paydo bo‘ladi. Biologik tomondan jinslar orasidagi farq boshidanoq yaqqol ko‘zga tashlanadi bu psixik va ijtimoiy tarafdin ota-ona bo‘lishga ta'sir ko‘rsatadi.

**Rivojlanayotgan psixologiya nuqtai nazarida ota-ona bo‘lishning ahamiyati.
(Erikson materiallarini qo‘llash).**



Rivojlangan psixologiya nuqtai nazarida ota-ona bo‘lishning ahamiyatini tushunish uchun Erikson bo‘yicha inson hayotining 8ta bosqichiga asoslanib ko‘rib chiqish kerak. Inson hayotining ruxiy-ijtimoiy masalalarini Erikson birinchi to‘rtta

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

bosqichlarga bo‘ladi; O‘smirlik davridan boshlab qolgan to‘rtta bosqich davom etadi.

Inson yuqorida aytib o‘tilgan bosqichlardan o‘tib o‘zini rivojlanishiga (o‘zini anglab yetishga) erishadi. Ota-ona bo‘lishda har xil muammoli vaziyatlar uchraydi, ayniqsa ayollar bu holatlarga (krizis vaziyatlarga) erkaklarga nisbatan ko‘proq uchraydi, agar ayol rivojlanish bosqichlaridan qoniqarli o‘tsa, insonlar bilan tez topishadi, sevadi, homilador bo‘lib, bolaga mehri ortadi va butun jamiyat uchun shaxs sifatida ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Rivojlangan psixologiya nuqtai nazarida ota-ona bo‘lish: bola rivojlanishi bilan birgalikda ota-onaning shaxs sifatida rivojlanishidir.

Onalik va otalik tushunchalarini rivojlanishi.

1) Onalikka qarashlarning rivojlanishi.

O‘zbekiston versiyasi

O‘zbekistonda ko‘p bolali oilalar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hamma oilada yeshlikdan bolalarga onaga va ayolga hurmat qilishni tushuntiriladi. O‘zbek oilalarda uchta oila avlodi yashaydi. Bola tug‘ilgandan keyin hamma oila a‘zolari bolaning sog‘lig‘iga va tarbiyasiga javobgar. Qiz tug‘ilganda esa, tarbiyalash vazifasi ona va buviga yuklanadi, ular uni sog‘lom onalikka tayyorlaydilar. Qizni tarbiyalashda katta e‘tibor onalik hissini rivojlanishiga qaratiladi: yoshlikdan kichiklarga g‘amxo‘r bo‘lish, mehr va javobgarlik hissi rivojlantiriladi. Oilalarda onalarga katta hurmat bilan qaraydilar. Musulmonlarning diniy kitoblarida aytiladiki: “Jannat onalarning oyog‘i ostidadir».

Yaponiyada onalikka qarashlarning shakllanishi. Onalikka qarashlarning uchta hili mavjud, bu instinktiv, tug‘ma rivojlanadigan va oraliqdagi. Bu 3 hil qarashlar madaniy siyosiy va iqtisodiy qadriyatlarga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Real hayotda esa, onalik instinktiv bo‘lib, har bir ayolda bunga layoqat bo‘ladi va bola tarbiyasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Tug‘ma rivojlanayotgan qarashlarga ko‘ra, ayol homilador bo‘lib, bola tug‘adi, uni tarbiyalaydi va har xil odamlar bilan muloqatda bo‘ladi va bu odamlar ham bola tarbiyasiga aloqador bo‘ladilar. Oraliqdagi qarash, vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, bu o‘zgarishlar homiladorlik vaqtida, tug‘ishda, bola tarbiyalashda ayolning hayot tarziga tasir qiladi.

Ikkinchi jaxon urushidan keyin, iqtisodiy rivojlanish bilan birga ayollar ham oliy ma‘lumotli bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘ldilar va ishlayotgan ayollar soni ham ko‘paydi. Bu o‘zgarishlar ayollar hayotida bola tug‘ish va bola tarbiyasidan tashqari, ayolda o‘zgacha maqsadlar ham paydo bo‘lishiga olib keldi. Jamiyatda



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

nuklear oilalar paydo bo'lishi, yosh oila qurganlarga mustaqil bola tarbiyasi bilan shug'ullanish o'ziga yarasha qiyinchiliklar keltirib chiqardi. Jamiyatdagi bunday o'zgarishlar onalik hissi instiktiv ekanligiga shubha hosil qildi. Psixologik tadqiqotlar natijasida, onalik hissi instiktiv ravishda, tug'ilgandan boshlanib, o'sib-rivojlanish bosqichlarida, bola parvarishlash, homiladorlik, tug'ruq va bola tarbiyalash jarayonida shakllanishi aniqlandi. Onalik hissi instiktiv shakllanishida otalar va atrofdagi odamlarning yordami kerak bo'ladi. Bu tushuncha hozirgi kunda asosiy tendensiya deb hisoblanadi. Onalik hissi tug'ma-instiktiv bo'lmasdan, tug'ilgandan so'ng, berilgan tarbiya, o'qish va atrof-muhit ta'sirida shakllanadi.

2)Otalikka qarashlarning rivojlanishi.

O'zbekiston versiyasi.

Oilada otalikka qarashlar.

Ota - manaviy tayanch, oila boshlig'i. Oddiy kunlarda va hayotning og'ir daqiqalarida ota oila oldida javobgar. Ota - ahloqiy, yuridik, jismoniy jihatdan oila posboni. Qiyinchiliklarda uning qattiqqo'lligi ota oilaning ma'naviy va ruhiy-ahloqiy holatiga javobgardir.

Bola tarbiyasida otaning roli.

Oilada va bola tarbiyasida otaning roli - otalar ko'pincha chaqaloq parvarishida qatnashmagan, faol munosabat 1,5 - 2 yoshdan boshlangan. Ammo ilmiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ruhiy tayyorlangan otalar bajonu dil, zavq bilan chaqaloqlarga qaraydilar, ular bolalarni ko'targanda rohatlanadilar va bola parvarishida ayollarga bo'sh kelmaydilar. Bu, o'z yo'lida, otaning bolaga nisbatan emotsional yaqinlashuviga imkoniyat beradi.

Ota bola parvarishiga qanchalik vaqtli kirishsa, shunchalik ota mexri unda kuchliroq rivojlanadi.

Jamiyatda otaning o'rni

Otaning jamiyatdagi o'rni - bu eng zarur burch bo'lib, bolalar farovonligini ta'minlaydi va jamiyatning kelajagini mustaxkamlaydi. Birinchidan, u jismoniy jihatdan bolani himoyalaydi, ikkinchidan - u bolaga moliyaviy va moddiy manbalarni beradi, uchinchidan - u bolaga madaniy qadriyatlarni yetkazib beradi.

Ota bolalariga o'rnak bo'ladi - otaning shaxsiy xususiyatlari, ayniqsa bolalarga mexri, bolaning to'g'ri rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota bilan birgalikda berilgan ijobiy emotsional-ruhiy holat, yolg'iz ona tarbiyasidan samaraliroqdir. Ota mexri farzandlariga erkak kishining bolalarga, ayoliga va atrofdagilarga muxabbat ko'rsatishini o'rgatadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ayol hayoti va onalik. Ayol hayoti davrlari va onalikka tegishli vazifalarning rivojlanishi. Erkaklardan farqli o'laroq, ayollarda o'tish davri bo'ladi. Ayol hayoti mobaynida o'qiydi, turmushga chiqadi, homilador bo'ladi, tug'adi va ushbu holatlarga bog'liq holda turmush tarzini tanlab oladi. Bugungi kunda Yaponiya ayollari o'z maqsadlariga erishish yo'lida o'qib, ishlab bola tarbiyasi bilan shug'ullanishga vaqt ajrata olmayaptilar, buning oqibatida harxil kritik va konflikt muammolar yuzaga kelmoqda. Hayotiy o'zgarishlar kulminatsion burilishlarga olib keladi, bunda ayollar ayollik jinsini, shaxsni shakllanishi, onalikni qabul qilishni rivojlantirish kerak. Demak, ayol hayoti davrlari nuqtai nazarida shaxsni shakllanishi, onalikni qabul qilishi uchun va krizis holatlardan chiqib ketishi uchun yordam ko'rsatishi kerak.

OILA FAOLIYATI VA OILA RIVOJLANISHI MASALALARI

«Oila» so'zini ma'nosini ko'pgina olimlar har xil talqin etganlar. Oila - bir necha insonlarning birligi bo'lib, ular emotsional ravishda bir-biriga bog'langanlar (er-xotin, farzandlar, aka-ukalar, opa-singillar). Oilada nafaqat iqtisodiy holat, balki ruhiy hamjihatlik va salomatlik katta o'ringa ega. Bundan tashqari, oilada reproduktiv faoliyat va bolalarni tarbiyalash vazifalari ham muhim ahamiyatga ega. Onalikda hamshiralik parvarishini amalga oshirish uchun oila konsepsiyasini tushunmoq zarur.

Hayotning barcha bosqichlarida uchraydigan har bir masalani yechimini oilaning hayot siklida er va xotin amalga oshirishi lozim. Masalan, farzand kutayotgan oila ona va ota rolini egallashi uchun kerak bo'lgan barcha vazifalarni bajarishi kerak. Bu rolni egallash jarayonida otalarning roli onalarpikidan farq qiladi, chunki ona homiladorlik davridanoq onalikni his qilib ona roliga tez kirishadi. Erkak kishi uchun esa otalik rolini qabul qilish qiyinroq kechadi, chunki bo'iajak farzand hali ona qornida. Bundan kelib chiqadiki, bola tug'lgach otada otalikni shakllanishi va bolaga bog'lanish kechroq rivojlanadi - bu tabiiy jarayondir. Shunday bo'lsa ham, ota-onada onalik ro'lini egallashi uchun yordam beradi, shuning uchun ushbu bosqichda er bilan xotin bir-birlariga ko'maklashishlari kerak.

HOZIRDA VA KELAJAKDA ONALIKDA HAMSHIRALIK

PARVARISHINING TAKOMILLASHUVI

SOG'LIQNI SAQLASH STATISTIKASI HAQIDA TUSHUNCHA

Statistika haqida tushuncha. Sog'liqni saqlash tizimi statistikasi sog'liqni saqlash tizimi ishlarini sifat va son ko'rsatkichlari xususiyatlarini, butun aholining va ayrim kontingentlarning sog'ligini, aholi orasida kasalliklarni tarqalganligi va kasallanish



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

sur'atini, sog'liqni saqlash tizimidagi profilaktik va davolash ishlarini samaradorligini o'rganish, hisobga olish monitoringini yuritish xizmatidir.

ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH STATISTIKASINING TENDENSIYASI VA VAZIFALARI

Onalik va bolalikdagistatistik ma'lumotlar, Fuqarolik holatini daftarga yozish (FHDYo) muassasalari beradigan dalolatnomalar tug'ilish, o'lim, nikohdan o'tganlar va ajralganlar haqidagi ma'lumotlarni yillik statistik hisoboti asosida olinadi. Tug'ilganlar soniga faqat tirik tug'ilganlar soni olinadi. Umumiy tug'ilish - bu bir yilda o'rtacha yillik aholining 1000 ta odamga nisbatan tirik tug'ilgan bolalarning umumiy koeffisienti.

Tug'ilishning umumiy koeffisienti fertil yoshdagi ayollarning soni ko'payishiga bog'liq. Yig'ma koeffisient shuni ko'rsatadiki, 49 yoshgacha bo'lgan bitta ayolda o'rtacha nechta bola tug'ilishiga qarab hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash vazirligi qoshida salomatlik va tibbiy statistika instituti va viloyatlarda uning filiallari faoliyat ko'rstadi. Ularning asosiy vazifasi aholining salomatlik ko'rsatkichlari, tug'ilish va o'lim, kasallanish ko'rsatkichlari monitoringini yuritib, bu ko'rsatkichlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sog'lom avlodni, oilani shakllantirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkillashtirishdan iborat.

Onalik va bolalikni himoya qilish masalalari davlat miqyosidagi ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekistonda onalik va bolalikni muhofaza qilish borasida Prezident va Vazirlar Mahkamasining Qarorlari ishlab chiqilgan va amaliyotga tadbiiq etilgan. Bunda fertil yoshdagi ayollar sog'ligini mustahkamlash va bolalardagi kasalliklarni oldini olish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Bu borada sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'ini sifatini yaxshilash hamda ayollar va bolalarga asosiy tibbiy xizmat ko'rsatish va kerakli dorilarni yetkazib berishni o'z ichiga olgan rejalar tuzilgan.

ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH TIZIMI ISLOHATLARI

Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimiga oid islohotlar quyidagi dasturlar asosida amalga oshirilmoqda: «Sog'lom avlod», «Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlodni tug'ilishi va tarbiyasi», «Turmush qurayotgan shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish», «Ona va bola



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

skriningsi», «Ayollar sog'ligini mustaxkamlash, sog'lom avlodni tug'ilishi va tarbiyasi», «Sihat salomatlik yili».

Bundan tashqari 2002-yil 25-yanvarda qabul qilingan «Ayollar sog'ligi va o'sib kelayotgan avlod sog'ligini mustahkamlashning qo'shimcha chora-tadbirlari» haqidagi, 2002-yil 5-iyulda qabul qilingan «Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning sog'ligini mustahkamlash, sog'lom avlod tug'ilishi va uni tarbiyalashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, oila manfaatlarini himoyalash, ayollarga ahamiyatni kuchaytirish hamda sog'lom avlodni shakllantirish - respublikada ijtimoiy-demografik holatni yaxshilanishga qaratilgan. Qarorlar ijrosini ta'minlash oqibatida, oila institutlari mustaxkamlanmoqda, go'daklar o'limi kamaymoqda, yoshga qarab tug'ruq tizimi yaxshilanmoqda hamda aholining o'rtacha yashash umri uzaymoqda. Shu bilan bir qatorda respublika regionlarida aholining reproduktiv salomatligi chuqur tahlil etilgandagi ko'rsatkichlarga qarab, bu borada o'tkazilgan chora-tadbirlar hali yetarli emasligi aniqlandi.

Shu sababli davlat tomonidan doimiy faoliyat ko'rsatadigan ishchi guruhlari tuzilib, ularga quyidagi vazifalar yuklatildi:

- regionlar miqyosida demografik holat o'rganilishi va tahlil qilinishi;
- reproduktiv salomatlikni mustahkamlash chora-tadbirlari samara- dorligini oshirish va ushbu jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni yechish;
- reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilada yoshlar o'rtasida tibbiy madaniyatni o'stirish, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash uchun aniq chora-tadbirlar va yo'nalishlarni ishlab chiqish;
- har bir shahar va qishloq hududlarida sog'lom avlod tug'ilishi va tarbiyalanishi bo'yicha qilingan yillik kompleks chora-tadbirlar monitoringi hamda onalar va bolalarga g'amxo'rlikni kuchaytirish va oilani mustaxkamlash borasida amalga oshirilgan ishlarni nazorat qilinishi.
- sog'lom oilani shakllantirish muammolari va «sog'lom ona - sog'lom bola» masalalarini maqsadli ravishda amalga oshirish bo'yicha turmush qurayotgan yoshlar, ayollar va aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini xotin-qizlar qo'mitasi, mahalla fuqarolar yig'ini, poliklinika va QVP mutaxassislari tomonidan televidenie, radio va ommaviy axborot vositalari yordamida tushuntirish ishlarini olib borish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida tug'ruqqa yordam ko'rsatish muassasalarining moddiy- texnika bazasini mustahkamlash. Bu



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

loyiha bo'yicha onalikni va bolalikni muhofaza qilish xizmatini takomillashtirish mamlakatning aholi zich joylashgan regionlarida yuqori darajaga ko'tarish.

Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar sog'ligini mustaxkamlash, sog'lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalash bo'yicha maqsadli dasturni amalga oshirish uchun «Ona va bola skrining markazlari» tashkil etildi. Bu markazlarning asosiy vazifasi homilador ayollar va chaqaloqlardagi tug'ma va irsiy kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olishdan iborat.

Ayollar va voyaga etayotgan avlodni sog'ligini mustaxkamlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish, ayollar sog'ligini mustaxkamlash uchun sharoitlar yaratish, sog'lom bola tug'ish va tarbiyalash uchun sog'lom muhitni shakllantirish va oilaviy xotirjamlikni ta'minlash maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu maqsadli dasturda ayollar va bolalar sog'lig'ini himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar quyidagilarga asoslanadi:

-ekstragenital kasalliklari bo'lgan o'smir qizlar va fertil yoshdagi ayollar orasida kasallikfarni erta aniqlash va davolash, tibbiy mone'liklari bo'lgan ayollarda istalmagan homiladorlikni oldini olish, anemiyasi bo'lgan barcha homilador ayollarga statsio- narlarda tarkibida temir moddasi bo'lgan preparatlar bilan davolashni ta'minlash.

-reproduktiv salomatlik bo'yicha yoshlarning tibbiy madaniyati va bilimlarini oshirish, aholining keng qatlamlariga qarindosh- urug'lar o'rtasidagi nikohni va barvaqt turmush qurishni oldini olish dolzarbligini hamda tug'ruqlar orasidagi ma'lum oraliqni saqlash kerakligini yetkazish. Kadrlarni qayta tayyorlashni takomillashtirish maqsadida akusher-ginekologlar, bolalar ginekologi, pediatrlar, anesteziologlar va umumiy amaliyot shifokorlari respublikadagi etakchi klinikalarda malakalarini oshirishlari lozim. Bunda akusherlik, ginekologiya, pediatriya sohasidagi dolzarb masalalarni ko'rib chiqish hamda tug'ruqda yordam ko'rsatish va bolalar davolash muassasalari ishchilarini yetakchi xorijiy tibbiy muassasalarda yillik malaka oshirishlari ko'zda tutilgan.

Insonlarda o'zining sog'lig'ini saqlashda ma'suliyatli munosabatda bo'lish, sog'liqni bebaho boyluk ekanligini anglash, sog'lom turmush tarzini kechirish, hayot faoliyatini ongli ravishda boshqarish, zararli odatlardan voz kechish, salomatlikka intilish, jismoniy va ruhiy rivojlanishning uyg'unligiga yo'naltirilgan hayotiy falsafani shakllantirish.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish, ona va bola sog'lig'ini mustahkamlash, reproduktiv salomatlikni



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

yaxshilash, tibbiy madaniyatni oshirish va oilada turmush tarzini sog'lomlashtirish hgmnda jismonan sog'lom va barkamol rivojlangan bolalar tug'ilishini va tarbiyasini ta'minlash.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Reproduktiv salomatlik deganda nimani tushunasiz?
2. Reproduktiv salomatlikni muhofaza qilish tamoyillarini aytib bering?
3. Reproduktiv davr bu qanday davr?
4. Reproduktiv huquq tushunchasiga ta'rif bering;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 apreldagi qonunining mohiyatini aytib bering;
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil avgustdagi qonunining mohiyatini aytib bering;
7. Reproduktiv salomatlik va huquq" konsepsiyasi mohiyati nimadan iborat?
8. Ayollar hayoti davomida olib boriladigan sanitar - oqartuv ishlar nimalardan iborat?
9. Reproduktiv salomatlik konsepsiyasini rivojlanish tarixini ayting.
10. Ota -ona bo'lishning ahamiyati nimalardan iborat?
11. Ota-ona bo'lishning ijtimoiy madaniy ahamiyatini aytib bering.
12. Ota-ona bo'lishning ahamiyatini tushunish uchun Erikson bo'yicha inson hayotini birinchi to'rtta bosqichini ayting;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "ONALIKDA HAMSHIRALIK PARVARISHI" – YA.N.Allayorov, D.Q.Tosheva, D.O'.Yusupova "Vorish-Nashriyot" Toshkent – 2012yil.
2. "AKUSHERLIK" - YA.N.Allayorov "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent – 2007yil.
3. "AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYADA HAMSHIRALIK ISHI" - M.A.Fozilbekova va b.lar "O'qituvchi" Toshkent -2007yil.
4. "REPRODUKTIV SALOMATLIK VA KONTRATSEPTIV TEXNOLOGIYA" - Ya.N.Allayorov "ISTIQLOL" Toshkent – 2005yil.
5. Internet ma'lumotlar.

